

Nargiza SHOALIEVA

*Ozbekiston xalqaro islom akademiyasi,
O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrası
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
nshoaliyeva74@mail.ru*

FARIDA AFRO'Z BAYTLARIDAGI JOZIBA

ОЧАРОВАНИЕ В СТРОКАХ ФАРИДЫ АФРОЗ

CHARM IN FARIDA AFRUZ'S DRAINS

Annotasiya: Hozirgi zamon o'zbek adabiyotida shoir va shoirlarimiz talaygina, lekin xalqimizga manzur bo'lganlari, so'zlari qaldan qalblarda joy olganlari qatorida go'zal vodiy farzandi Farida Afro'z xonum nomlari alohida e'tiborni tortadi. Shoirlarimiz she'rlari taxalluslariga mos bo'lib dunyoingizni yoritadi va baytlardagi falsafiy ma'nolar qalbingizga ravshanlik baxshlaydi. Maqolada shoirlarning ijodidan ba'zi namunalar orqali badiiy tahlil qilib, uning mazmun mohiyatini anglashga harakat qilindi.

Kalid so'zlar: Farida Afro'z, she'r, bayt, falsafiy, ma'rifat, fikr, ayol, ishq.

Аннотация: В современной узбекской литературе немало поэтов и поэтесс, но особое внимание привлекает имя дочери прекрасной долины- Фарида Афруз, которая нравится нашему народу и слова которой находятся в сердцах людей. Стихи нашей поэтессы озаряют наш мир в соответствии с её псевдонимом, а философский смысл стихов придаёт чистоту и свет нашему сердцу. В статье предпринята попытка понять суть творчества поэтессы через художественный анализ некоторых стихов.

Ключевые слова: Фарида Афруз, поэма, стих, философский, просветление, мысль, женщина, любовь.

Annotation: There are many poets and poetesses in modern Uzbek literature, but the name of the daughter of the beautiful valley, Farida Afruz, who is liked by our people and whose words are in the hearts of people, attracts special attention. The poems of our poetess illuminate our world in accordance with her

pseudonym, and the philosophical meaning of the poems gives purity and light to our hearts. The article attempts to understand the essence of the poetess's work through an artistic analysis of some poems.

Key words: Farida Afruz, poem, verse, philosophical, enlightenment, thought, woman, love.

KIRISH

Hozirgi zamon o'zbek she'riyatida o'z o'rniga, tiliga, uslubiga, bayoniga ega bo'lgan, xalqimiz suygan mahbub va mashhur shoirlarimiz Farida Afro'z (Bo'tayeva- 1956yil tug'ilgan) ijodiyoti haqida gapirmoq, ash'orini tadqiq va tahlil ostiga olmoq, ham oson va ham qiyin ish! Osonligi shundaki, shoirlarimiz ko'pincha o'z fikrlarini xalqchil, soda va ravon tilda bayon qiladi, she'rlari shaklan ham murakkab emas, mumtoz badiiy san'atlar ketidan yurmaydi, aro'z vazniga ham juda kam murojaat qiladi. Chunki Farida Afro'z modern shoirlarga o'xshab ko'proq ichki mohiyatga, mavzuni dolzarbligiga, ijtimoiy masalalarga, turmush va bugungi kun muammolariga, ayollar masalalariga e'tibor qaratgan:

*So'zga chiqdi so'zamol to'ti,
Bulbul bo'ldi, sayradi, chunon,
Ammo ismi hamon To'tixon. (2 jild)*

Yoki :
Ayol Erning bir burdasi...

*Ammo, Ilohiy jazo-
Qovushsalarida, qo'shilib ketmaslar. (2 jild)*

Qiyinligi shundaki, shoir she'rlaridagi ichki ma'no va mazmunni anglash uchun, uning keng dunyoqarashidan, tafakkur tarzidan va ko'ksidagi dardlaridan ogoh bo'lish kerak bo'ladi. Haqiqiy shoir dardu iztiroblarsiz she'r yozolmasa kerak!? Aynan o'sha dard bilan yashash, hayotdagi hech kim payqamagan narsalarni nazarga olib tafakkur qilish natijasida falsafiy fikrlar mavjini qog'azga mavzun tushirish har kimni ham ishi emas!

*"Sen duv-duv to'kasan meva qurtlasa,
Sen zaifildizning, mo'rtning zavoli.
Sen borsan, sinov bor, imtihon, jazo,
Adolat peshvosi Qo'qon shamoli." (1 jild)*

ASOSIY QISM

Farida Afro'z bir shamol timsolida tabiatdagi tozalash jarayonini aks ettirgan bo'lsada, boshqa

tomondan tugʻilib usgan shaharga sogʻinch hissi, u shoir qalbida shu darajadagi, hatto buzgʻun shamolni ham yaxshilik asosi sifatida yaʼni adolat elchisi sifatida gavdalanadi.

Farida Afroʻz ijodining asosiy qismi 2023yil 4 jildlik tanlangan asarlar toʻplami sifatida nashrdan chiqdi, ular:

1. “Meni kuting“ sheʼrlar toʻplami
2. “Oʻzimni sogʻinib“ tasbehlar
3. “Oʻlimi yoʻq hayot“ tarixiy qissalar
4. “Pardani ochaylik“ tarjimalar kitoblaridan

iboratdir.

Shoiraning dunyosini bilish uchun, anglash uchun bu jildliklar juda zarur edi. Bunday jamlanish oʻquvchiga shoirni kompleks anglashga yordam beradi. Shoir mahorati va qirralari oydinlashadi. Bu kitoblar biz bilgan olamdan tashqari yana olamlar borligi haqida habar beradi. “Tasbeh”larda hayratomuz fikrlarni mavjudligi vujudni titroqqa soladi, beixtiyor hayotga oʻzgacha qarashga chorlaydi, shunchaki izohsiz bir oqing- a:

“Men chivinga hech kim emasman,
Qonim ichdi oʻzi, nailoj,
Qondoshingni oʻldirib boʻlmas?” (2 jild)

Bu borada koʻproq Eronlik shoir Suhrob Sipehriyga (1928-1980) oʻxshataman, shunda shoirlar orasida zamonlar, chegaralar, millat degan tushuncha yoʻqligiga amin boʻlaman. Shoirlar uchun inson va uning qismati, taqdiri, hayoti, ishq, Xudosi dolzarb, butun ziyo va maʼrifat ahlini qiynagan savol biz kimmiz va qayerdan keldik va qayerga ketmoqdamiz, vazifamiz va missiyamiz nima?! degan savollarga javob izlagan:

“Avval gʻorda yashadik,
Soʻngra qasrda,
Keyinroq esa yer qaʼrida!” (2 jild)

Farida Afroʻz ijodida koʻpincha sharq ayoli sifatida- qismatiga rozi boʻlgan, itoatkor, fidokor, vafoli, hayoli sifatida gavdalansada, lekin baʼzida hajv tarzida, baʼzida isyon qilib, baʼzida esa xalqchil yondoshganini mushahada qilamiz:

“Qirq tovugʻin boqaman deya
Goʻng titkilar kechayu kunduz
Bir nodon hoʻroz!...” (2 jild)

Taʼrixdan maʼlumki, sharq shoirlari mardlikcha ishni boʻyinlariga olib, oshiq boʻlganlar, uning iztiroblarida kuyganlar, zero, yerdagi sevgi ilohiy ishqdan bir tomchi deydi Rumi:

ای تو پناه همه روز مِخَن
باز سپردم به تو من خویشتن

(Ey azobli kunlardan asraguvchi

Yana senga topshirdim oʻzimni

قَلَم مِهْری که کنارش نیست

قطرة آن، الفت مردست و زن

Sen cheksiz mehr-muhabbat ummonidirsan,

Erkak va ayol oʻrtasidagi muhabbat bu

ummondan bir tomchidir)

Farida Afroʻz tomchisi ummonga qoshilganga oʻxshaydi:

“Tomchisini qizgʻonmaydi ummoni borlar...” (1 jild)

Tomchi agar ummonga qoʻshilsagina ummonga aylanmish, zero shoiramiz ishq tarannum qilar ekan butun borliqdagi mavjudot goʻzallashib ketadi, hatto yantoq ham:

“Sendan goʻzal gul yoʻq dunyoda,
Senday xushboʻy, sendayin mayin,
Otam qabrini yashnatgan yantoq!” (2 jild)

Yoki:

“Seni sevganimda men goʻzal edim....” (1 jild)

Farida Afroʻz oʻq tomirida ishq aylanib turadi, buni biz uning avvalgi majmualaridan to bugungi sheʼrlardagi holu havosidan, sharqning buyuk zabardast mutasavvuf shoirlarga baxshlagan sheʼrlaridan mushohada qilishimiz mumkin. Bu Shoiramizni tasavvuf tarixidan ogoh ekanligidan va uni chuqur anglaganidan dalolat beradi.

U orifona va rindona ruhida yozilgan sheʼrlarga koʻp eʼtiborini qaratganligi uning sheʼrlarida bayon usulida, mazmun va mohiyatida ufurib turadi:

Boshingni toshga ur ming bor, oʻzingdan oʻzga
Yor yoʻqdir,

Tunu kun yigʻlagin abgor, oʻzidin oʻzga
Yor yoʻqdir. ...

Diling vayronalar etma, dili mayxonalar ichra,
Dilingni chal qilib dutor, oʻzidan oʻzga
Yor yoʻqdir. ... (5-22b.)

Yoki:

Javobimiz bering endi, yor,
Biz ketamiz koʻngil shahriga.
Jurʼat shaydir, shijoat tayyor,
Qololmaymiz Xudo qahriga. (4-74)

Shoira ijodida shiorga oʻxshagan sheʼrlar yoki maʼlum bir vaqtga yoki holatga bagʻishlangan sheʼrlarni deyarli koʻrmaysiz. Farida Afroʻz samimiy shoira u koʻpincha oʻz holidan, inson holidan qolaversa bir ayol holidan gapiradi:

*“Ayolni sev, ayolga yolbor,
Ming bir kecha ertaklaring ayt,
Alpomishlar tug‘ib beradi.*

*Ayolni sev, ostonasin o‘p,
Qasr qurma, ko‘nglini so‘ra,
Balo kelsa turib beradi.*

*Ayolni sev, “O‘laman!” degil,
Ishq yaratgan Parvardigordan
Senga umr so‘rab beradi!”(1- jild)*

Yoki:

Ey, qoshlari kamonim,

Ey, ko‘zlari jayronim,

Savdolardan savdoyi,

Bir mehrning gadoyi,

Hayronlardan hayronim

Qani aytchi, ayt nega,

Nechun yolg‘izsan Ayol?! (4-89b.)

Farida Afro‘z Xuroson oriflari kabi o‘z she‘rlarida o‘lim haqida deyarli gapirmagan, u hayotni sevuvchan shoira, go‘zallik va donolikga oshifta qalb egasi! Balkim U o‘limni ham go‘zallik tomonida ko‘rar, har holda ba‘zida ayriliqlardan hayiqqanini ko‘ra olamiz:

“Yelkamda ayriliq- zalvorli tog‘,

Yurak parvozini yo‘qotgan qushdir...”(1 jild)

XULOSA

Hozirgi zamon O‘zbek shoiralarimiz ichinda yorqin yulduz bo‘lib tovlanib turgan nomi bilan Farida Afro‘z ijodiy kamolotida na faqat o‘zbek xalqi orasida balki dunyo hamjamiyatida ham o‘z o‘rniga va mavqe‘iga ega bo‘ladi degan umid bilan, shoiramizga bu sharaflı missiyalarida ijoddan aslo charchamaslikni tilab qolamiz, zero Iqbol Lohiriy ta‘biri bilan aytganda: “Shoirlik ham payg‘ambarlik misoli!”

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Bo‘tayeve Farida Afro‘z 4 jildlik tanlangan asarlar to‘plami. – Toshkent: Sharq, 2023.
2. Кулиёте Шамс. 4-жилд. – Техрон: Peyome edolat, 2018. – Б. 294-293.
3. Фарида Афрўз. Куздан аразладим. – Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2017.
4. Фарида Афрўз. Ушшоқ. – Тошкент: Шарқ, 2004.

5. Фарида Афрўз. Ўзимдан Ўзимгача. Тошкент: Ёзувчи, – 2000.
6. Фарида Афрўз. Тасбех. Четки. Rosary. – Тошкент: Шарқ, 2007.
7. Фарида Афрўз. Томчисини қизғонмайди уммони борлар. – Тошкент: Pravo-press, 2019.
8. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/farida-afro-z-1956>